

“TASDIQLANGAN”

“UzAuto Motors” AJ
Kuzatuv kengashining
2025-yil 1-avgustdagi
247-sonli yig‘ilish
bayoni, 7-ilovasi

**“UZAUTO MOTORS” AKSIYADORLIK JAMIYATINING XAYRIYA VA
TIJORAT HOMIYLIKI BO‘YICHA SIYOSATI**

1. Siyosatning maqsadi va qo‘llanish sohasi

1.1. Mazkur Siyosat “UzAuto Motors” AJ (bundan buyon matnda “Korxona” deb yuritiladi) tomonidan xalqaro Komplayens talablari va amaldagi qonunchilikka muvofiq ijtimoiy investitsiya, xayriya va tijorat homiyligini amalga oshirish yoki xayriya va homiylik yordamini qabul qilish jarayonida rioya etilishi majburiy bo‘lgan tamoyillarni va qoidalarini belgilaydi.

1.2. Siyosatning maqsadi ijtimoiy investitsiya, xayriya va tijorat homiyligini amalga oshirish yoki xayriya va homiylik yordamini qabul qilishda shaffoflikni ta‘minlash, samarali boshqarish va komplayens xatarlarini minimallashtirish, shuningdek xayriya va tijorat homiylik sohasida qaror qabul qilishning yagona standartini belgilashdan iborat.

1.3. Ijtimoiy investitsiyalar, xayriya va tijorat homiyligi quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- **qonuniylik tamoyili** - huquqning haqiqiy amal qilishini belgilovchi huquqiy rejimiga rioya qilishdan iborat bo‘lib, bunda barcha shaxslar qo‘llaniladigan qonunchilikka qat’iy rioya etadilar. Shu bilan birgalikda, Korrupsiyaga qarshi kurashishning xalqaro talablariga va qonun hujjatlariga muvofiq barcha operatsiyalar hujjatlar bilan rasmiylashtirilishi tushuniladi;

- **ixtiyoriylik tamoyili** - Ijtimoiy investitsiyalar, xayriya va tijorat homiyligi ko‘rsatish va qabul qilish huquqini belgilaydigan huquqiy rejimga rioya qilinishini anglatadi. Yordam oluvchilar, Homiy tashkilotlar va boshqalar tomonidan majburlash holatining yo‘qligi, korxonaning xayriya loyihalarida ishtirok etishdan bosh tortish huquqining mavjudligi tushuniladi;

shaffoflik tamoyili - korxona va homiylik oluvchining xayriya yoki tijorat homiyligida ochiq ishtirok etish huquqini belgilaydigan huquqiy rejimga rioya qilinishini anglatadi va yordam oluvchilarni tanlashning aniq mezonlari, yordamdan maqsadli foydalanilishining nazorati, xayriya va tijorat homiyligi loyihalarining natijalari to‘g‘risida muntazam hisobot e‘lon qilib borish tushuniladi.

1.4. Mazkur siyosat korxona, xodimlar va uning nazorati ostidagi korxonalar uchun majburiydir.

1.5. Mazkur siyosat bajarilishi kerak bo'lgan minimal standartni belgilaydi. Agar qonun hujjatlarida yuqoriroq talablar belgilangan bo'lsa, korxona ushbu talablarga rioya qiladi. Agar nazorat ostidagi korxona ushbu siyosatda ko'rsatilganidan yengilroq talablarni qabul qilmoqchi bo'lsa, korxonadan yozma rozilik olinishi lozim.

2. Atamalar va asosiy tushunchalar

Qo'llaniladigan qonunchilik – amal qilinishi shart bo'lgan barcha normativ-huquqiy hujjatlar, shu jumladan, agar qo'llanilsa, ular bilan cheklanmagan holda: O'zbekiston Respublikasi, AQSHning korrupsiyaga qarshi kurashish, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlari, shuningdek, AQSH, Buyuk Britaniya va Yevroittifoq hukumatining sanksiyalar va eksport nazoratiga oid qonun hujjatlari hamda biznes hamkor ro'yxatdan o'tgan joyda yoki u joylashgan mamlakatda amal qiladigan korrupsiyaga qarshi qonunchilik nazarda tutiladi.

Homiylar – homiylilikni amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslar.

Oluvchilar – ijtimoiy investitsiya, xayriya yoki tijorat homiyligini oluvchi yuridik va jismoniy shaxslar.

Nazorat ostidagi korxona - Korxona tomonidan olingan aksiyalari va kiritilgan ulushlari orqali ovoz beruvchi huquqiga ega bo'lgan yoki ustav jamg'armasida ustun mavqega ega bo'lgan, korxonaga tarkibidagi va (yoki) shu'ba korxonasi, qo'shma korxona va boshqa tashkilot.

Davlat organi – davlat fuqarolik xizmati tatbiq qilinadigan davlat organlari va tashkilotlari ro'yxatiga kiritilgan davlat hokimiyat vakolatlariga ega bo'lgan tashkiliy jihatdan alohida tuzilma.

Davlat fuqarolik xizmati lavozimi – davlat organining vakolatlarini amalga oshirish uchun Davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining davlat reestriga kiritilgan lavozim.

Davlat fuqarolik xizmatchisi – davlat fuqarolik xizmati lavozimida o'z faoliyatini amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi.

Davlat ishtirokidagi tashkilot – ustav fondida davlat ulushi mavjud bo'lgan tijorat tashkiloti yoxud to'liq yoki qisman davlat organi tomonidan tashkil etilgan yoki ta'sis etilgan notijorat tashkilot.

Siyosiy partiya – O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining qarashlar, manfaatlar va maqsadlar mushtarakligi asosida tuzilgan, davlat hokimiyati organlarini shakllantirishda jamiyat muayyan qismining siyosiy irodasini ro'yobga chiqarishga intiluvchi hamda o'z vakillari orqali davlat va jamoat ishlarini idora etishda qatnashuvchi ko'ngillilar birlashmasi.

Xalqaro tashkilot – siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ilmiy-texnikaviy, huquqiy va boshqa sohalaridagi hamkorlikni amalga oshirish maqsadida xalqaro shartnomaga asoslangan hamda xalqaro huquqqa muvofiq ravishda tuzilgan davlatlar birlashmasi.

Siyosiy ta'sirga ega shaxs – amaldagi yoki sobiq yuqori lavozimli amaldor, shu jumladan:

mahalliy davlat hokimiyati yoki o'zini o'zi boshqarish organlarining rahbari;

hukumat rahbari, vazir;
parlament deputati;
siyosiy partiyaning boshqaruv organi (kengashi) a'zosi;
Konstitutsiyaviy sud, Oliy sud sudyasi yoki boshqa darajadagi sud organining sudyasi (sud organi a'zosi);
Markaziy bank kengashi yoki boshqaruvi a'zosi;
elchi (konsul);
inson huquqlari bo'yicha vakil yoki biznes-ombudsman;
Qurolli kuchlarning katta lavozimdagi ofitseri;
davlat ulushi bo'lgan korxona kengashi yoki boshqaruvi a'zosi;
xalqaro tashkilot rahbari.

Chetlatish muddati - bu siyosiy ta'sirga ega bo'lgan shaxs o'z davlat lavozimini tugatgandan keyin, ta'sirga ega hisoblanishda davom etadigan vaqt davri.

Davlat xizmatchilari (davlat boshliqlari, vazirlar, deputatlar va boshqa yuqori mansabdor shaxslar) xizmat muddati tugaganidan keyin 5 yil;

Sudyalar (sud tizimida yuqori lavozimlarni egallab turgan shaxslar) pensiyaga chiqqandan yoki vakolatlari tugaganidan keyin 3 yil;

Harbiylar (oliy unvonli zobitlar va qo'mondonlar) pensiyaga chiqqandan keyin 3 yil;

Davlat ishtirokidagi tashkilotlarining rahbarlari (davlat ishtiroki bo'lgan korxonalarni boshqaruvchi shaxslar) vakolat tugaganidan keyin 3 yil;

Xalqaro tashkilotlar boshqaruvi a'zolari (xalqaro yoki hukumatlararo tashkilotlarda muhim lavozimlarni egallab turgan shaxslar) vakolat muddati tugaganidan keyin 3 yil;

Ushbu shaxslarning yaqin qarindoshlari ta'sirga ega shaxs lavozimini to'xtatganidan keyin 1 yil.

Biznes hamkor – mehnat munosabatlaridan tashqari, Korxona shartnomaviy munosabatlarga kirishadigan har qanday yuridik yoki jismoniy shaxs (kontragent, yetkazib beruvchi, distribyutor, diler yoki Korxonaning nomidan va topshirig'iga binoan yoki uning manfaatlarini ko'zlab harakat qilish vakolatiga ega bo'lgan boshqa uchinchi shaxs biznes-hamkorga misol bo'lishi mumkin).

Xodim(lar) – mehnat shartnomasi asosida yoxud saylab qo'yiladigan yoki tayinlanadigan lavozimlarda mehnat (xizmat) faoliyatini amalga oshirayotgan boshqaruv xodimi, uning o'rinbosarlari, tarkibiy tuzilma rahbarlari va boshqa ishchilar.

Xayriya mablag'lari – jismoniy yoki yuridik shaxslarga qaytarib olish va manfaat (foyda) ko'rish shartisiz, beg'araz yoki imtiyozli shartlarda yo'naltirilgan mol-mulk hamda pul mablag'lari, shuningdek ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish, boshqa qo'llab-quvvatlash bo'yicha faoliyatni ixtiyoriy ravishda amalga oshirish.

Ijtimoiy investitsiyalar – jamiyatni barqaror rivojlantirish va uzoq muddatli ijobiy o'zgarishlarga erishishga qaratilgan, jamoat manfaatlarini maqsadida aholining turmush sharoitini yaxshilash va muhim ijtimoiy muammolarni hal qilish, shuningdek

kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash hamda kadrlar salohiyatini, malakasi va ishlab chiqarish tajribasini oshirish maqsadida yo‘naltiriladigan pul mablag‘lari va natura shaklidagi investitsiyalar.

Tijorat homiyligi – Korxona va uning nazorati ostidagi korxonalar faoliyatini, mahsulotlari va xizmatlarini targ‘ib qilish, savdo hajmini va mijozlar sodiqligini oshirish maqsadida shov-shuvli tadbirlar, reklama maydoni yoki ommaviy yoritishning boshqa shakllarini taqdim etish yoki bozor bilan tijorat ma’lumotlarini almashish yoxud korxona obro‘sini ko‘tarish evaziga bunday tadbirlar uchun pul mablag‘lari yoki natura shaklida ko‘mak ko‘rsatish.

Manfaatlar to‘qnashuvi – shaxsning shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorligi uning o‘z lavozim yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta’sir ko‘rsatayotgan yoxud ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, korxonaning yoki davlatning huquqlari, qonuniy manfaatlari o‘rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan (mavjud manfaatlar to‘qnashuvi) yoki yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan (ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi) vaziyat.

Shaxsiy manfaatdorlik — davlat organining yoki boshqa tashkilotning xodimi yoxud u bilan aloqador shaxslar ushbu xodim tomonidan bevosita yoki bilvosita qaror qabul qilinishi yoki xodimning ushbu jarayonda boshqacha tarzda ishtirok etishi natijasida olishi mumkin bo‘lgan har qanday naf yoki afzallik.

Uchinchi tomonlar – Korxonaning bir qismi bo‘lmagan, lekin uning faoliyati bilan bevosita yoki bilvosita aloqador bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslar.

Xodimga aloqador shaxslar – xodimning yaqin qarindoshlari hamda xodim va (yoki) uning yaqin qarindoshlari qaysi yuridik shaxsning ustav fondi (ustav kapitali) aksiyalariga yoki ulushlariga egalik qilsa yoxud unda boshqaruv organining rahbari yoki a’zosi bo‘lsa, o‘sha yuridik shaxs.

Yaqin qarindoshlar – ota-onalar, aka-ukalar, opa-singillar, er-xotinlar, farzandlar, shuningdek, er-xotinlarning ota-onalari, aka-ukalari, opa-singillari va farzandlari.

Xavf omillari (“Red flags/ Qizil bayroqlar”) – noqonuniy xatti-harakatlar, vijdotsiz xulq-atvor, poraxo‘rlik yoki korrupsiyaning paydo bo‘lish ehtimoli (mavjudligi) haqida ogohlantirishi mumkin bo‘lgan, shu boisdan har qanday harakatlarni amalga oshirishdan oldin qo‘shimcha tekshiruv o‘tkazishni talab qiladigan salbiy ma’lumotlar, ko‘rsatkichlar yoki holatlar.

Skrining – Homiyni yoki oluvchini hamda homiylik (xayriya) tadbiri ishtirokchisini xavf omillari mavjudligi yuzasidan o‘tkaziladigan tekshirish. Tekshirish natijasida hisobot tuziladi.

Diniy tashkilot – fuqarolarning birgalikda dinga e’tiqod qilish, ibodat qilish, diniy rasm-rusumlar va marosimlarni bajarish maqsadida tashkil etilgan, daromad (foyda) olishni o‘z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan hamda olingan daromadlarni (foydani) o‘z ishtirokchilari (a’zolari) o‘rtasida taqsimlamaydigan tashkilot va birlashmalar. Bundan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan diniy ta’lim

muassasalari, ijtimoiy ahamiyatli va madaniy meros obyektlari ro'yxatiga kiritilgan ziyoratgoh va boshqa obyektlar mustasno.

Homiylik yoki xayriya tadbiri ishtirokchisi (amalga oshiruvchi)- korxona tomonidan amalga oshiriladigan ijtimoiy investitsiya, xayriya va/yoki tijorat homiylik tadbirlarida ishtirok etadigan, ushbu tadbirlarni amalga oshirish uchun shartnoma asosida jalb qilinadigan yoki bir maqsaddagi bunday tadbirlarni birgalikda moliyalashtiradigan jismoniy yoki yuridik shaxs.

3. Umumiy qoidalar

3.1. Ijtimoiy investitsiyalar, xayriya va tijorat homiyligi qo'llaniladigan qonunchilik talablariga, soliq majburiyatlariga bo'ysunishi va korxonaning nufuziga ta'sir etishi mumkin bo'lgan xavflar bilan muvofiqlashtirilishi lozim.

3.2. Siyosatga muvofiq, xavflar bilan bog'liq masalalarni hal qilish uchun xayriya va tijorat homiyligi turli xil dastlabki kelishuv mezonlari va jarayonga qo'yiladigan talablarga ega.

3.3. Muayyan faktlar yoki holatlar qonunchilikni yoki me'yorlar talablarni buzish xavfini keltirib chiqarishi mumkin ("qizil bayroqlar"). Ijtimoiy investitsiyalarni, xayriya va tijorat homiyligini amalga oshirishni boshlashdan oldin oluvchi hamda homiylik yoki xayriya tadbirlari ishtirokchilari skrining tekshiruvidan o'tkazilishi va xavflar bartaraf etilishi kerak.

3.4. Ijtimoiy investitsiyalar, xayriya va tijorat homiyligi Hukumatning qaror, farmon va ko'rsatmalari, Korxonaning tashabbusi yoki jismoniy va/yoki yuridik shaxsning so'roviga binoan, shuningdek "O'zavtosanoat" aksiyadorlik jamiyati tomonidan yo'naltirilgan loyihalarga binoan amalga oshiriladi.

Bunda, Hukumat yordam tashabbuslarini beradi, lekin ular xalqaro muvofiqlik standartlariga javob berishi, korrupsiya va pul yuvish bilan bog'liq ehtimoliy xavflarni hisobga olingan holda amalga oshiriladi.

3.5. Korxona qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda xayriya va homiylik yordamini qabul qilishi mumkin. Bunday yordamni olishda manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik, pul mablag'larining O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi yoki shartnomada ko'rsatilgan maqsadlarga samarali va maqsadli yo'naltirilishini ta'minlash, shuningdek, xayriya va homiylik faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar korxonaning internet tarmog'idagi rasmiy veb-saytida ma'lum qilinishi uchun barcha choralar ko'riladi.

3.6. Korxona tomonidan olinadigan xayriya yoki homiylik yopiq mukofot shaklida bo'lmasligi va korxonaning alohida xodimlari tomonidan xayriya qiluvchi yoki homiy, uning yaqin qarindoshlari, ular bilan bog'liq shaxslar, shuningdek, donor yoki homiy shaxsiy manfaatga ega shaxslar foydasiga qarorlar qabul qilinishiga ta'sir qilmasligi kerak.

3.7. Ijtimoiy investitsiyalar, xayriya va tijorat homiyligi korxonaning biznes obro'sini (brendi va nufuzini) mustahkamlashning asosiy usullaridan biridir. Biroq korxonaning homiyligi g'ayriqonuniy ustunlikka ega bo'lishga urinish deb qabul qilinmasligi yoki hisoblanmasligi kerak.

3.8. Ijtimoiy investitsiyalar, xayriya va tijorat homiyligi faoliyati yozma shartnomalar asosida amalga oshiriladi. Ushbu shartnomalarda taraflarning poraxo‘rlik va korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi amaldagi qonun hujjatlarini buzadigan harakatlarni sodir etmaslik majburiyati nazarda tutilishi shart.

Shuningdek, shartnomalarda ijtimoiy investitsiyalar, xayriya va homiylik yordamlarini olish/berish va undan foydalanish maqsadlari, yordam shakllari, yordamning pul ifodasidagi summasi, xayriya yoki homiy qiluvchidan kelib tushgan yordamdan maqsadli foydalanish to‘g‘risida hisobot berish usullari belgilab qo‘yilishi lozim.

Bundan tashqari, shaffoflikni ta‘minlash maqsadida homiylikni ommaviy oshkor qilish shartlari va tartibi ko‘rsatilishi, homiy tomonidan homiylik mablag‘larini maqsadli sarflanishi ustidan nazorat qilish vakolatlari va usullari hamda belgilangan maqsaddan ortgan homiylik mablag‘larini homiyga qaytarish tartiblari belgilanishi maqsadga muvofiq.

3.9. Ijtimoiy investitsiyalar, xayriya va tijorat homiyligi uchun yo‘naltirilgan mablag‘lar aniq hisob-kitoblarga asoslangan bo‘lishi hamda korxona buxgalteriya kitoblarida va yozuvlarida aniq aks ettirilishi kerak

3.10. Ijtimoiy investitsiyalar, xayriya va tijorat homiyligini amalga oshirishda yoki qabul qilishda ushbu Siyosat hamda ichki tartib va qoidalariga, shuningdek, qo‘llaniladigan qonunchilik va korxonaning boshqa yuridik majburiyatlariga rioya qilinishiga mos kelishi bo‘yicha tekshiruvdan o‘tkazilishi kerak.

3.11. Ijtimoiy investitsiyalar, xayriya va tijorat homiyligida to‘lanadigan pul miqdori, oluvchining nomi, shuningdek aniq maqsadni ifodalaydigan tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo‘lishi kerak.

3.12. Ijtimoiy investitsiyalar, xayriya va tijorat homiyligi ko‘rsatilishi:

- korxona va tizim korxonalari faoliyatida qabul qilinadigan qarorlarga ta‘siri bo‘lsa;

- tender va tanlov jarayonlarida qatnashayotgan kontragentlar bilan bo‘lgan munosabatlarda;

- korxona ayni paytda xayriya (yoki tijorat homiyligi)ni so‘ragan tashkilot (yoki tashkilot egasi) yoki xayriya (yoki tijorat homiyligi)dan foyda oluvchi tashkilot bilan ishbilarmonlik aloqalarini o‘rnatgan, muzokaralar olib borilayotganda yoki so‘rov ko‘rib chiqilayotganda;

- oluvchi bilan nizolar bo‘yicha ko‘rilayotgan sud jarayonlari vaqtida mumkin emas.

3.13. Ijtimoiy investitsiyalar, xayriya va tijorat homiyligini:

- jismoniy shaxslarga (ijtimoiy himoyaga muhtoj va og‘ir moliyaviy ahvolda bo‘lgan shaxslardan tashqari);

- har qanday diniy tashkilotlarga;

- siyosiy partiyalar, tashkilotlar yoki nomzodlarga nisbatan saylovoldi va referendumga qo‘yilgan masalalar bo‘yicha tashviqotlarni moliyalashtirish maqsadida;

- davlat xizmatchisi yoki biznes hamkorga (homiyligni amalga oshirish nomaqbul ta'sir ko'rsatishga olib kelsa);

- korrupsiya yoki axloqqa zid xatti-harakatlarga aralashib qolgan yoki shunday nom chiqargan tashkilotga;

- yordamning yakuniy oluvchisi davlat xizmatchisi bo'lgan davlat sektorida amalga oshirilayotgan dasturga;

- tijorat homiyligi korxonaning biznes va marketing maqsadlari bilan yaqqol aloqasi yo'q bo'lganda;

- xayriya (yoki tijorat homiyligi)ning biznesni sotib olish yoki uni saqlab qolish yoki biznesga taalluqli boshqa imtiyozlarni olish (masalan, nazorat qiluvchi organlarning mavqeini o'zgartirish) uchun zarur deb hisoblashga asoslar mavjud bo'lganda;

- so'rov og'zaki ravishda amalga oshirilsa va oluvchi so'rovni yozma ravishda yuborishdan bosh tortganda;

- ijtimoiy investitsiyalar, xayriya va tijorat homiyligini amalga oshirish uchun hujjatli dalillar mavjud bo'lmaganda;

- ijtimoiy investitsiyalar, xayriya va tijorat homiyligi mablag'laridan kelgusida foydalanish uchun shaffoflik mavjud emas yoki cheklangan deb hisoblanganda;

- so'rov naqd pul (banknotalarni) yoki unga tenglashtirilgan to'lov vositalari orqali (vaucherlar, cheklar, kredit/debet kartalar, pulda ifodalanadigan sertifikatlar) to'lash to'g'risida yuborilganda;

- so'rovda to'lovlarni ikki yoki undan ortiq hisob varaqlariga yoki (ayniqsa, aniq bir oluvchi bilan bog'liq bo'lmagan) offshor hisob varaqlariga amalga oshirish so'ralganda;

- ijtimoiy investitsiyalar, xayriya va tijorat homiyligi maqsadlari aniq belgilanmagan yoki uning ta'rifi o'ta mavhum keltirilganda (masalan, "bolalar hayotini yaxshilash") xayriya yoki tijorat homiyligini amalga oshirish ta'qiqlanadi.

3.14. Korxona va uning nazorati ostidagi korxonalar tomonidan amalga oshiriladigan xayriya va tijorat homiyligi uchun sarflanadigan mablag'larning eng ko'p miqdori biznes rejalarida ko'zda tutilgan bo'lishi va bu miqdor o'tgan yilda olingan sof foydaning 3 foizidan oshmasligi kerak hamda bu xarajatlar biznes-rejasining o'tgan hisobot davridagi sof foydaga taalluqli qismi ko'rsatkichlari bajarilganda amalga oshirilishi lozim.

4. Ijtimoiy investitsiyalar, xayriya va tijorat homiyligi bo'yicha mezon va talablar

4.1. **Ijtimoiy investitsiyalar** siyosatning 3-bo'limida ko'rsatilgan umumiy qoidalar bilan bir vaqtda quyidagi mezon va talablarga mos kelishi lozim.

Mezonlari:

Jamiyat uchun uzoq muddat ijtimoiy va/yoki iqtisodiy foydali bo'lishi, jamiyat rivojiga ta'sir qilishi uchun mo'ljallangan bo'lishi lozim. Shuningdek, loyihalar atrof-muhitga salbiy ta'sir qilmasligi kerak.

Talablari:

- loyihalar ijtimoiy muammolarni hal qilishi, aholining ma'lum bir qatlami yoki ko'p sonli odamlarga yordam berish imkonini berishi kerak.

- loyihalar professional boshqaruv tizimiga ega bo'lishi, oldindan rejalashtirilgan loyihaning bajarilishi yo'l xaritalari (ish rejalari, xarajatlari smetalari va boshqalar) bo'lishi kerak.

- loyihalar natijalarga asoslanishi hamda ayniqsa Korxoning sanoat hamkorlikligi, innovatsiyalar, komplayens va ishbilarmonlik etikasi bilan bog'liq qadriyatlariga muvofiq bo'lishi kerak.

- uchinchi shaxslar orqali emas, balki to'g'ridan-to'g'ri yakuniy oluvchilarga nisbatan amalga oshiriladi. Bundan bir loyiha bir nechta investorlar tomonidan moliyalashtirish holatlari mustasno. Bunday loyihalarga korxona tomonidan investitsiya kiritilganga qadar bo'lgan vaqtdagi mavjud barcha ishtirokchilari skrining tekshiruvidan o'tkazilishi, korxona tomonidan investitsiya kiritilgandan so'ng loyihaga jalb qilinadigan ishtirokchilarni qo'llaniladigan qonunchilik talablariga muvofiq faoliyat yuritishi hamda komplayens va ishbilarmonlik etikasi bilan bog'liq qadriyatlarga muvofiqligini nazorat qilish loyiha boshqaruvchiga yuklatilishi lozim.

- ma'lum bir xususiy sektorni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash maqsadida amalga oshirilmasligi lozim.

- siyosiy maqsadlar uchun yo'naltirilmasli lozim.

- imkoni mavjud hollarda tovar moddiy boyliklar shaklida amalga oshiriladi.

- biron-bir tanlov yoki o'yinda g'olibni aniqlash protsedurasi xolis, ochiq, shaffof bo'lishi va noqonuniy ko'rinishdagi harakat sifatida qabul qilinmasligi kerak.

Maqsadlari:

- ta'lim sohasini rivojlantirish;

- sog'liqni saqlash tizimini qo'llab-quvvatlash;

- aholi bandligini oshirish, ishsizlik darajasini kamaytirish va kambag'allikka qarshi kurash;

- ekologik barqarorlikni ta'minlash;

- ijtimoiy infratuzilmani yaxshilash;

- kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash hamda kadrlar salohiyatini, malakasi va ishlab chiqarish tajribasini oshirish;

- jamiyatga yangi texnika va texnologiyalarni ishlab chiqarish tizimlarini tatbiq qilish;

- yirik sanoat tarmoqlari orqali zaruriy tajriba-sinov loyihalarini o'tkazish, hamda ularga tayyorgarlik tadbirlarini tashkillashtirish;

- jamiyatga avtomobilsozlik va muhandislik tadqiqotlari sifatini, innovatsiya va yutuqlarini oshirishning yangi va samarali usullarini taklif qilish.

4.2. Xayriyalar siyosatning 3-bo'limida ko'rsatilgan umumiy qoidalar bilan bir vaqtda quyidagi mezon va talablarga mos kelishi lozim.

Mezonlari:

Jamiyat tomonidan xayriya mablag'larini amalga oshirish zarurati individual ravishda belgilanadi. Xayriya tadbirlari bevosita ehtiyojmandlarga bir martalik va beg'araz yordam berish, moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash uchun amalga oshiriladi.

Talablari:

- xayriya yordamiga haqiqiy ehtiyojmand bo'lgan qonuniy maqomga ega, davlat ro'yxatidan o'tgan va qonuniy faoliyat yuritayotgan tashkilotlarga hamda yordamga haqiqatan ham muhtoj bo'lgan qonuniy va axloqiy qoidalarga muvofiq yashaydigan insonlar foydasiga amalga oshiriladi;

- xayriya tadbirlari yoki xayriya mablag'lari bevosita belgilangan maqsadga to'g'ri yo'naltirilishi uchun aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda oldindan rejalashtirilgan bo'lishi kerak.

- Korxonaning tegishli siyosati va protseduralariga mos kelishi bo'yicha tekshiruvdan o'tkaziladi.

Maqsadlari:

- fuqarolarni ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash va himoya qilish, shu jumladan aholining ijtimoiy jihatdan muhofaza qilinmagan va kam ta'minlangan toifalarining moddiy ahvolini yaxshilash;

- jismoniy yoki intellektual xususiyatlari, boshqa holatlar sababli mustaqil ravishda o'z huquqlarini amalga oshira olmaydigan hamda qonuniy manfaatlarini himoya qila olmaydigan ishsizlarni, nogironlarni va boshqa shaxslarni ijtimoiy rehabilitatsiya qilish;

- xalqlar o'rtasida tinchlik, do'stlik va totuvlikni mustahkamlashga ko'maklashish;

- oilaning ijtimoiy nufuzi va rolini mustahkamlashga ko'maklashish;

- onalik, bolalik va otalikni himoya qilishga ko'maklashish;

- ta'lim, fan, madaniyat, san'at, ma'rifat sohasidagi faoliyatga, shuningdek shaxsning ma'naviy kamol topishiga ko'maklashish;

- kasalliklar profilaktikasi va fuqarolar sog'lig'ini saqlash sohasidagi faoliyatga, shuningdek sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishga ko'maklashish, fuqarolarga ma'naviy-ruhiy yordam ko'rsatish;

- jismoniy tarbiya va ommaviy sport sohasidagi faoliyatga ko'maklashish;

- aholini tabiiy ofatlar, ekologiya, sanoat halokatlari yoki boshqa halokatlar oqibatlarini bartaraf etishga, baxtsiz hodisalarning oldini olishga tayyorlash;

- terrorchilik harakatlari, tabiiy ofatlar, ekologiya, sanoat halokatlari yoki boshqa halokatlar natijasida jabrlanganlarga yordam ko'rsatish;

- atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish;

- madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish;

- qo'llaniladigan qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladigan boshqa maqsadlarni joriy qilish uchun amalga oshiriladi.

4.3. Tijorat homiyligi siyosatning 3-bo'limida ko'rsatilgan umumiy qoidalar bilan bir vaqtda quyidagi mezon va talablarga mos kelishi lozim.

Mezonlari:

- korxonaning umumiy strategiyasi va brendiga mos muhim anjuman yoki ommaviy madaniy yoki sport tadbirlari kabi shov-shuvli tadbir, faoliyat yoki tashkilotni qo'llab-quvvatlash uchun amalga oshiriladi;

- qonuniy maqomga ega shaxslarga nisbatan tatbiq qilinishi hamda xayriyadan farqli ravishda, korxona uchun ham iqtisodiy samara berishi va uning mavqei oshishiga imkoniyat yaratishi lozim.

Talablari:

- biznes taklifga asoslanishi va muayyan maqsadga ega bo'lishi;
- tijorat foydalari va xarajatlari shu kabi maqsadlarga boshqa usullar yordamida erishilgan xarajatlar bilan taqqoslanishi;

- aniq va puxta tayyorlangan, shu jumladan, me'yor va talablarga rioya etilishi tekshirilgan va tijorat foydalari bor-yo'qligiga oid hujjatlar mavjud bo'lishi kerak.

4.4. Xayriya yoki homiylik yordamini olishdagi talablar:

- donor yoki homiy bilan shartnoma tuzilishi, unda xayriya yoki homiylikni olish va undan foydalanish maqsadlari, yordam shakllari, yordamning pul ifodasidagi miqdori, shuningdek, donor oldida hisobot berish usuli ko'rsatilishi yoki olingan yordamdan foydalanish rejasi to'g'risida homiy xabardor bo'lishi;

- Korxonaning internet tarmog'idagi rasmiy veb-saytida olingan xayriya yoki homiylik yordamiga doir axborotni joylashtirishi kerak.

5. Siyosat talablari buzilishi to'g'risida xabar qilish, tekshirish va javobgarlik choralari.

5.1. Har qanday shaxs ushbu Siyosat bo'yicha maslahat olmoqchi yoki Siyosat talablari buzilishi holatlari bo'yicha xabar qilmoqchi bo'lsa, Korxonaning +998 78 140 56 30 ishonch telefoni, "compliance@uzautomotors.com" elektron pochta manzili orqali Komplayens xizmatiga murojaat qilishi mumkin.

5.2. Korxona Siyosat talablari buzilishi haqida xabar qilgan shaxslar ta'qibga uchramasligi va so'roviga asosan shaxsi ochiqlanmasligini kafolatlaydi.

5.3. Xodimlar tomonidan ushbu tartib-taomillarning buzilishi xizmat tekshiruvi o'tkazilishiga sabab bo'ladi va qonunchilikda belgilangan javobgarlikni keltirib chiqarishi mumkin.

6. Yakunlovchi qoidalar

6.1. Siyosat talablarini amalga oshirish jarayoni alohida ishlab chiqilgan "Tartib" asosida olib boriladi.

6.2. Ushbu Siyosat Odob-axloq qoidalari, Poraxo'rlik va korrupsiyaga qarshi kurashish, Sanksiyalar va eksport nazorati, Firibgarlikka qarshi kurashish, Manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha siyosatlar, Biznes hamkorlarni kompleks tekshirish siyosatlari bilan birgalikda qo'llaniladi.

“UZAUTO MOTORS” AKSIYADORLIK JAMIYATINING XAYRIYA VA TIJORAT HOMIYLIGINI AMALGA OSHIRISH BO‘YICHA TARTIBI

1. Umumiy qoidalar

1.1. Mazkur tartib “UZAUTO MOTORS” AJ (bundan buyon “Korxona” deb yuritiladi) va uning tarkibida hamda boshqaruvida bo‘lgan korxonalarining xayriya va tijorat homiyligi yordamini amalga oshirish va qabul qilish tartibini belgilaydi.

1.2. Ushbu tartib Korxona qabul qilgan “Xayriya va tijorat homiyligi bo‘yicha siyosati” ning (bundan buyon “Siyosat” deb yuritiladi) bir qismidir.

1.3. Tartibning maqsadi – Korxonada xayriya va tijorat homiyligini amalga oshirish hamda qabul qilishda shaffoflik, adolat va belgilangan me‘yorlarga rioya qilishni ta‘minlash hamda korrupsiya, manfaatlar to‘qnashuvi va noqonuniy harakatlarni oldini olishdan iborat.

1.4. Tartib xayriya va tijorat homiyligi faoliyatini xalqaro standartlar, milliy qonunchilik, ichki qoidalar talablariga muvofiqlashtiradi. Ushbu qoidalar Korxonaning ishonchli va mas‘uliyatli biznes jarayonlarini rivojlantirish, uning obro‘-e‘tiborini saqlash va himoya qilishga xizmat qiladi.

1.5. Ijtimoiy investitsiya, xayriya va tijorat homiyliklari bo‘yicha murojaatlarni ko‘rib chiqish, Hukumat va yuqori turuvchi tashkilotlarning qaror, farmon va ko‘rsatmalarini ijrosini ta‘minlash, shuningdek korxona tashabbusi bilan rejalashtirilayotgan ijtimoiy investitsiyalar, xayriya va tijorat homiyliklari tadbirlarini amalga oshirish jarayonlarida korxonaning tarkibiy tarmoqlarining mas‘uliyati va vazifalari quyidagicha taqsimlanadi.

Jumladan:

-Ma‘muriyat boshqarmasi – ijtimoiy investitsiya va xayriya yordamlari uchun kelib tushgan murojaatlarni va tashabbuslarni ko‘rib chiqish, tegishli tarmoqlar bilan kelishish uchun buyurtmanomalarni hamda ularni ko‘rib chiqish va tasdiqlash jarayoni bilan bog‘liq barcha hujjatlar va ma‘lumotlarni tayyorlash, natijalari bo‘yicha murojaat mualliflariga xabar berish, tegishli tarmoqlar bilan hamkorlikda ijtimoiy investitsiyalar va xayriya yordamlari ko‘rsatish bo‘yicha Korxona rahbarining qarorlari, buyruqlari, shartnomalari va boshqa hujjatlar loyihalarini tayyorlash, amalga oshirilgan ijtimoiy investitsiyalar va xayriya yordamlari reestrini (2-ilova) yuritish, tuzilgan shartnoma shartlariga muvofiq maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni tashkil etish, ijtimoiy investitsiyalar va xayriya yordamlarini ko‘rsatish bo‘yicha hujjatlar saqlanishiga;

-Xodimlarni boshqaruv direksiyasi – ijtimoiy investitsiyalarning korxona uchun kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash hamda kadrlar salohiyatini, malakasi va ishlab chiqarish tajribasini oshirish sohasida kelib tushgan murojaatlarni, tashabbuslarni va dasturlarni ko‘rib chiqish, tegishli tarmoqlar bilan kelishish uchun buyurtmanomalarni hamda ularni ko‘rib chiqish va tasdiqlash jarayonlari bilan bog‘liq barcha hujjatlar va ma‘lumotlarni tayyorlash, natijalari bo‘yicha murojaat mualliflariga xabar berish, dasturlar ijrosi bo‘yicha hisobotlar berish, tegishli tarmoqlar bilan hamkorlikda ijtimoiy investitsiyalarni moliyalashtirish bo‘yicha Korxona rahbarining

qarorlari, buyruqlari, shartnomalari va boshqa hujjatlar loyihalarini tayyorlash, amalga oshirilgan ijtimoiy investitsiyalar reestrini (2-ilova) yuritish, ijtimoiy investitsiyalarning samaradorligini baholash hamda yetishtirilgan kadrlardan maqsadli foydalanish uchun kadrlar siyosatini amalga oshirishga;

- **Dilerni rivojlantirish va marketing boshqarmasining** – tijorat homiyliklarini Korxonaning marketing strategiyasiga muvofiqligi, brendini ommalashtirish, nufuzini oshirishga qaratilishini ta'minlash, tijorat homiyligi uchun kelib tushgan murojaatlarni va tashabbuslarni ko'rib chiqish, tegishli tarmoqlar bilan kelishish uchun buyurtmanomalarni hamda ularni ko'rib chiqish va tasdiqlash jarayonlari bilan bog'liq barcha hujjatlar va ma'lumotlarni tayyorlash, natijalari bo'yicha murojaat mualliflariga xabar berish, tegishli tarmoqlar bilan hamkorlikda tijorat homiyligini moliyalashtirish bo'yicha Korxona rahbarining qarorlari, buyruqlari, shartnomalari va boshqa hujjatlar loyihalarini tayyorlash, amalga oshirilgan tijorat homiyliklari reestrini (2-ilova) yuritish, tuzilgan shartnoma shartlariga muvofiq maqsadli sarflanishi hamda keltirilgan tijorat naflari ustidan nazoratni tashkil etish, tijorat homiyligini ko'rsatish bo'yicha hujjatlar saqlanishiga;

-**Moliyaviy rejalashtirish boshqarmasi** – ijtimoiy investitsiyalar, xayriya va tijorat homiyligini amalga oshirish uchun Korxonaning moliyaviy imkoniyatlarini o'rganish, siyosatga muvofiq o'rnatilgan umumiy chegaradan ortmasligini nazorat qilishga;

-**G'aznachilik boshqarmasi (yoki Buxgalteriya xizmati tarkibidagi to'lovlarni amalga oshirish guruhi)** – to'lovlarni amalga oshirish uchun korxonaning to'lov imkoniyatlarini aniqlash, to'lovlarni amalga oshirish.

-**Buxgalteriya hisobi xizmati** – ijtimoiy investitsiya, xayriya va tijorat homiyligi faoliyatiga yo'naltirilgan barcha mablag'larni buxgalteriya yozuvlarida to'g'ri va aniq aks ettirilishiga;

-**Yuridik xizmati** – ijtimoiy investitsiya, xayriya va tijorat homiyligi ko'rsatish bo'yicha Korxona rahbarining bayonnoma qarorlari, buyruqlari, tuziladigan shartnomalar va boshqa ijro hujjatlarini huquqiy ekspertizadan o'tkazishga;

-**Komplayens xizmati** – amalga oshirilayotgan ijtimoiy investitsiya, xayriya va tijorat homiyliklarida Siyosatga amal qilinishini ta'minlash va xavf omillari mavjudligi yuzasidan tekshirishga mas'uldirlar.

2. Ijtimoiy investitsiya, xayriya va tijorat homiyligini amalga oshirish jarayoni va bosqichlari

2.1. Siyosatga muvofiq, xavflar bilan bog'liq masalalarni hal qilish uchun ijtimoiy investitsiyalar, xayriya va tijorat homiyligi ko'rsatilishidan oldin bir necha bosqichli kelishuv va hujjatlashtirish jarayonlaridan o'tadi.

2.2. Ijtimoiy investitsiya, xayriya va tijorat homiyligini ko'rsatish bo'yicha Hukumatning qarorlari, farmon va ko'rsatmalari, yuqori turuvchi tashkilotning ijroga qaratilgan hujjatlari, jismoniy va/yoki yuridik shaxslarning murojaatlari Korxonaga kelib tushganidan so'ng, "UzAuto Motors" aksiyadorlik jamiyatida ish yuritish bo'yicha yo'riqnoma" hamda "Jamiyatda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to'g'risida"gi Nizomlarga asosan Ma'muriyat boshqarmasi tomonidan ro'yxatga olinadi. Rahbariyat rezolyutsiyasiga asosan

belgilangan ijro etuvchilarga ijrosini ta'minlash uchun EHAT tizimi orqali yo'naltiriladi.

Bunda, ushbu tartibning 1.5-bandida ko'rsatilgan taqsimot bo'yicha ijroga qaratiladi.

Agar rezolyutsiyada rad etilishi mazmunida topshiriq ko'rsatilgan bo'lsa, 1.5-banda ko'rsatilgan taqsimotdan qat'iy nazar Ma'muriyat boshqarmasi tomonidan murojaat muallifiga yoki boshqa tashkilotlarga javob xati loyihasi tayyorlanadi va rahbariyat tasdig'iga kiritiladi.

2.3. Ijro uchun yo'naltirilgan mas'ul tarmoq (kelgusida mas'ul tarmoq deb yuritiladi) tomonidan ijtimoiy investitsiya, xayriya va tijorat homiyligini amalga oshirishni maqsadga muvofiqligi, buning uchun ajratiladigan mablag'lar va mol-mulklar miqdori hamda boshqa masalalar yuzasidan tegishli tarmoqlar bilan (og'zaki) kelishiladi.

Kelishuvga erishilmagan hollarda qaror qabul qilish uchun korxona rahbariyatiga yozma takliflar kiritiladi.

Maqsadga muvofiq deb topilgan tadbirlarni amalga oshirish uchun EHAT tizimida tartibning 1.1-1.2-ilovalaridagi tegishli buyurtmanoma tayyorlanadi.

2.4. Buyurtmanomaga quyidagi ma'lumotlar kiritiladi hamda ilova qilinadi:

- ijtimoiy investitsiya, xayriya yoki homiylik ko'rsatilishi bo'yicha kelib tushgan hujjatlar ilova qilinadi;

- ijtimoiy investitsiya, xayriya yoki homiylikning maqsadlari batafsil tavsiflanadi;

- ajratiladigan mol-mulkning turi (pul yoki natura shaklida) va uning puldagi miqdori;

- oluvchi va ijtimoiy investitsiya, xayriya yoki homiylik tadbirlari ishtirokchilarining rekvizitlari, ta'sischilari, rahbarlari va ushbu masalada bog'lanish mumkin bo'lgan vakillari to'g'risida ma'lumotlar ko'rsatiladi.

Bundan tashqari, zaruriyatga ko'ra "UzAuto Motors" AJ Biznes hamkorlarini kompleks tekshirish protsedurasi"ga asosan "Kompleks tekshiruv anketasi" talab qilinishi mumkin.

2.5. Buyurtmanomalar bevosita mas'ul tarmoq rahbarlari tomonidan ko'rib chiqiladi, buyurtmanomada ko'rsatilgan mol-mulk yoki pul mablag'lari ajratilishi maqsadga muvofiq deb topilgan taqdirda "bo'lim ichida rozilik" berish uchun tasdiqlanadi.

Bo'lim ichida tasdiqlangan buyurtmanomalar Moliyaviy rejalashtirish boshqarmasi, G'aznachilik boshqarmasi, Buxgalteriya hisobi xizmati va Komplayens xizmatiga ko'rib chiqish uchun bir vaqtda avtomatik o'tkaziladi.

2.6. Buyurtmanomalar Moliyaviy rejalashtirish boshqarmasi, G'aznachilik boshqarmasi va Buxgalteriya hisobi xizmati tomonidan uch ish kunidan ko'p bo'lmagan vaqtda 1.5-bandda ko'rsatilgan masalalar bo'yicha tegishli tekshirilib, e'tirozlar bo'lmasa tasdiqlanadi. Aks holda, e'tirozlar ko'rsatilib, o'z takliflari bilan buyurtmanoma qaytariladi.

Qaytarilishi bilan bog'liq kamchiliklar bartaraf etilganidan so'ng, mas'ul tarmoq tomonidan buyurtmanomani yuqoridagi tartibda qayta kiritilishi mumkin.

2.7. Komplayens xizmati buyurtmanomalarda ko'rsatilgan ma'lumotlar bo'yicha ikki ish kuni ichida, qo'shimcha ma'lumotlar talab qilinganida besh ish kuni ichida ko'rib chiqadi va tartibning 5-ilovasidagi Skrining hisobotini tayyorlaydi.

Skrining hisobotida xayriya yoki tijorat homiyligi ko'rsatilishi Siyosatda ko'rsatilgan talablarga to'g'ri kelishi yoki kelmasligi, xavflar mavjud yoki mavjud emasligini (6.1 va 6.2-ilovalardagi Xavf omillarini baholash bo'yicha tekshiruv varag'iga asosan) ko'rsatadi va ularni minimallashtiruvchi jihatlarni tavsiflab beradi.

Komplayens xizmati tomonidan buyurtmanomani ko'rib chiqish jarayonida oluvchida va/yoki tadbir ishtirokchi(lar)sida Siyosatda ko'rsatilgan xavflar aniqlansa, "Biznes hamkorlarni kompleks tekshirish" bo'yicha Siyosat va tartib talablari asosida kompleks tekshiruv (Due diligence) o'tkazadi.

Buning uchun mas'ul tarmoq Komplayens xizmatining so'roviga asosan 2 ish kunidan kechiktirmasdan zarur ma'lumotlar va hujjatlar taqdim etilishini ta'minlaydi.

Komplayens xizmati tomonidan so'ralgan hujjat va ma'lumotlar o'z vaqtida taqdim etilmasa, buyurtmanoma va hujjatlar tasdiqlanmasdan qaytariladi.

Kamchiliklar bartaraf etilganidan so'ng, Komplayens xizmati tomonidan buyurtmanoma yuqoridagi tartibda qayta ko'rib chiqiladi.

Skrining hisoboti elektron nusxasi EHAT tizimidagi hujjatga ilova qilinadi. EHAT tizimidagi uzilishlar yoki boshqa sabablarga ko'ra buyurtmanoma elektron yuritilmagan hollarda, Komplayens xizmati hisobotning nusxasini buyurtmanoma va hujjatlarni mas'ul tarmoqqa keyingi bosqichdagi hujjatlashtirish uchun taqdim etadi.

Skrining hisobotining asl nusxasi va unga asos bo'lgan barcha hujjatlar nusxalari Komplayens xizmatida saqlanadi.

2.8. Ijtimoiy investitsiya, xayriya va tijorat homiyligi buyurtmanomasi barcha bosqich kelishuvlaridan o'tgach, mas'ul tarmoq uch ish kuni ichida Korxona rahbarining ijtimoiy investitsiya, xayriya va tijorat homiyligini ko'rsatish to'g'risidagi buyruq loyihasini tayyorlaydi, rasmiylashtiradi hamda kelishadi.

2.9. Buyruqda majburiy tartibda ijtimoiy investitsiya, xayriya va tijorat homiyliklarini amalga oshirish uchun korxona, oluvchi va bevosita ishtirokchilar o'rtasida ikki yoki uch tomonlama shartnoma rasmiylashtirish topshirig'i mas'ul tarmoq va yuridik xizmatga yuklatiladi.

Shuningdek, natura shaklida amalga oshiriladigan tadbirlar bo'yicha naturadagi tovar yoki asosiy vositalarni balansda saqlash bo'yicha moddiy javobgar tarmoq rahbariga tovar yoki asosiy vositalarni ajratish va belgilangan tartibda chiqim hujjatlarini tayyorlash vazifasi yuklatiladi.

2.10 Mas'ul tarmoq tomonidan korxonaning "Shartnomalar (bitimlar)ni tuzish tartib taomillari" to'g'risidagi standartga asosan shartnoma loyihasi tayyorlanadi (tavsiyaviy shartnoma loyihalari 3-4-ilovalar).

Shartnoma loyihalarida majburiy tartibda quyidagilar kiritilishi lozim.

- ijtimoiy investitsiyalar, xayriya va homiylik yordamlarini taqdim etish va oluvchining undan foydalanishning aniq maqsadlari;
- yordam shakllari, yordamning pul ifodasidagi summasi;
- oluvchi tomonidan yordamdan maqsadli foydalanish to'g'risida hisobot berish usullari va muddatlari

- ijtimoiy investitsiyalar va xayriya tadbirlarida oluvchi tomonidan ommaviy oshkor qilinish shartlari va tartibi;

- homiy tomonidan homiylik mablag'larini maqsadli sarflanishi ustidan nazorat qilish vakolatlari va usullari;

- belgilangan maqsaddan ortgan ijtimoiy investitsiya, xayriya va tijorat homiylik mablag'larini homiyga qaytarish tartiblari va muddatlari;

- tijorat homiyligida korxona faoliyatini, mahsulotlari va xizmatlarini targ'ib qilish, savdo hajmini va mijozlar sodiqligini oshirishga qaratilgan shov-shuvli tadbirlar, reklama yoki ommaviy yoritishning boshqa shakllarini taqdim etish shartlari va tartiblari;

- taraflarning poraxo'rlik va korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi amaldagi qonun hujjatlarini buzadigan harakatlarni sodir etmaslik va amaldagi sanksiya hamda eksport nazoratiga oid shartlarga majburiyatlari kiritilishi lozim.

2.11. Komplayens xizmatining xavflarni minimallashtirish bo'yicha taklifi asosida shartnoma shartlariga xayriya va tijorat homiyligi ajratilayotgan loyihani amalga oshirish jarayonida oluvchidan kafolatlar yoki qo'shimcha ma'lumot va hujjatlar berilishi bo'yicha majburiyat qo'shilishi mumkin.

2.12. Yuridik xizmat Korxona rahbarining bayonnoma qarorlari, buyruqlari va boshqa ijro hujjatlari loyihalarini hamda ijtimoiy investitsiya, xayriya va tijorat homiyligini amalga oshirish to'g'risidagi shartnomalarni amaldagi qonunchilikka, korxonaning ichki normativ hujjatlariga hamda Siyosatga va mazkur tartibga muvofiqligini tekshiradi. Nomuvofiqliklar aniqlangan taqdirda uni to'g'rilash bo'yicha mas'ul tarmoqqa o'z takliflarini beradi. Nomuvofiqliklar bartaraf etilgan va/yoki aniqlanmagan hujjatlar tasdiqlanadi.

2.13. Tasdiqlangan shartnomalar korxonaning "Shartnomalarni ro'yxatga olish va saqlash tartibi" to'g'risidagi standartga asosan ro'yxatga olinadi va saqlanishi ta'minlanadi.

2.14. Korxona rahbarining ruxsati bilan ijtimoiy investitsiya, xayriya va tijorat homiyliklari ommaviy axborot vositalarida yoritish uchun korxona matbuot xizmatiga taqdim etiladi.

2.15. Ijtimoiy investitsiya, xayriya va tijorat homiyligini ko'rsatish to'g'risidagi shartnomalar va boshqa tegishli hujjatlar tasdiqlanganidan so'ng mas'ul tarmoq tomonidan "To'lov hujjatlarini tayyorlash va to'lovlarni amalga oshirish tartibi" to'g'risidagi standartga asosan "to'lovni kelishuv varog'i" EHAT tizimi orqali rasmiylashtiriladi.

2.16. Tasdiqlangan to'lovni kelishuv varog'iga asosan G'aznachilik boshqarmasi (yoki Buxgalteriya hisobi xizmati tarkibidagi to'lovlarni amalga oshirish guruhi) tomonidan to'lovlar amalga oshiriladi.

2.17. Buxgalteriya hisobi xizmati tomonidan ijtimoiy investitsiya, xayriya va tijorat homiyliklari uchun o'tkazilgan mablag'lar korxonaning "Hisob siyosati" va amaldagi buxgalteriya hisobi standartlariga asosan tegishli buxgalteriya yozuvlarida to'g'ri va aniq aks ettiriladi.

2.18. Natura shaklida amalga oshiriladigan xayriya tadbirlari bo'yicha naturadagi tovar yoki asosiy vositalarni balansda saqlash bo'yicha moddiy javobgar

tarmoq tomonidan “Hisobvaraq-faktura va yuk hujjatlarini rasmiylashtirish tartibi” to‘g‘risidagi standartga asosan mas’ul tarmoq tomonidan SAP S/4 HANA tizimida yuk hujjatlari rasmiylashtiriladi va Buxgalteriya hisobi xizmati tomonidan belgilangan tartibda oluvchiga elektron hisobvaraq-faktura yuboriladi.

2.19. Amalga oshirilgan ijtimoiy investitsiya, xayriya va tijorat homiyliklari to‘liq qiymati (tijorat homiyligi bo‘yicha oluvchi tomonidan hisobvaraq-faktura taqdim etilgan hollarda qo‘shilgan qiymat solig‘isiz qiymati) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5-fevraldagi 54-son qarori bilan tasdiqlangan “Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga asosan xarajatlar tasnifiga muvofiq hisobga olinadi.

3. Xayriya va tijorat homiyligi maqsadli sarfini o‘rganish

3.1. Shartnomaga asosan xayriya va tijorat homiyligi pul yoki natura shaklida ko‘rsatilganidan so‘ng, tadbirning davomiyligi qarab, shartnoma shartlarida belgilangan muddatlarda va tartibda mas’ul tarmoq tomonidan oluvchidan xayriya va homiyliklardan maqsadli foydalanilishi bo‘yicha ma’lumotlar olinadi.

3.2. Agar shubhali holatlar kelib chiqsa (oluvchi aloqalardan o‘zini olib qochsa, xayriya va homiylik maqsadli sarflanishi bo‘yicha ma’lumotlarni asossiz taqdim etmasa, ma’lumotlar to‘liq bo‘lmasa yoki yolg‘on ma’lumotlar bersa va boshqa shu kabi holatlar) yoki yordam maqsadsiz sarflanayotganligi to‘g‘risida xabar, murojaat va shikoyatlar bo‘lsa, mas’ul tarmoq tomonidan Komplayens xizmatiga xabar beriladi.

Xabar kelib tushganidan so‘ng Komplayens xizmati Korxona rahbariyatiga tegishli mutaxassislar tarkibida ishchi guruh tuzish to‘g‘risida bildirgi kiritadi.

Buyruq asosida tashkil etilgan ishchi guruh joyiga chiqib, xayriya yoki tijorat homiyligi maqsadli sarflanishi bo‘yicha shartnoma shartlariga ko‘ra o‘rganish o‘tkazadi va natijasi bo‘yicha takliflar kiritgan holda dalolatnoma tuzadi.

O‘rganish natijasi bo‘yicha xayriya yoki tijorat homiylik mablag‘lari yoki natura shakllari:

- maqsadsiz sarflanib talon-toroj qilinganligi aniqlansa, hujjatlar huquqni muhofaza qiluvchi idoralarga yuboriladi;

- maqsadli sarflanishi bo‘yicha nizo chiqsa, nizo sudgacha bo‘lgan mexanizmlarni qo‘llash orqali yoki sud tartibida hal etiladi;

- shartnoma shartlari oluvchi tomonidan qo‘pol yoki muntazam buzilgan taqdirda uni bir tomonlama bekor qilish choralari ko‘riladi.

4. Xayriya va tijorat homiyligi hisobini yuritish va monitoring qilish

4.1. Mas’ul tarmoq tomonidan amalga oshirilgan ijtimoiy investitsiya, xayriya va tijorat homiyliklarining reestri tartibning 2-ilovasiga muvofiq yuritiladi.

4.2. Mas’ul tarmoq rahbari yoki u tomonidan tayinlangan shaxs ijtimoiy investitsiya, xayriya va tijorat homiyligi bo‘yicha kelib tushgan murojaatlar, shuningdek, ularni ko‘rib chiqish va tasdiqlash jarayoni bilan bog‘liq barcha hujjatlar va ma’lumotlarni belgilangan tartibda besh yil muddat davomida saqlash uchun javobgardir.

4.3. Har olti oyda bir marta tartibning 7-ilovasida ko‘rsatilgan maxsus komissiya tomonidan xayriya va tijorat homiyligini amalga oshirishda Siyosat va tartib

talablariga rioya etilganligi yuzasidan monitoring o'tkazadi va natijasi bo'yicha ikki nusxada dalolatnoma rasmiylashtiriladi.

4.4. Monitoring natijasiga ko'ra aniqlangan xato va kamchiliklar bo'yicha Korxona rahbariyatiga takliflar kiritiladi.

5. Xodimlarni siyosat va tartib talablari bo'yicha o'qitish

5.1. Siyosat va mazkur tartib talablari xodimlar ishga yangi qabul qilinganda, shuningdek yilda bir marta trening o'tkazish yo'li bilan o'qitib boriladi. O'qitish ishlarini tashkil etish Xodimlar boshqaruvi direksiyasi va Komplayens xizmati tomonidan amalga oshiriladi.

Trening tadbirlari Komplayens xizmati bilan kelishiladi va Xodimlar boshqaruvi direksiyasi tomonidan yillik o'qitish rejasiga kiritiladi.

6. Tartib talablari buzilishi to'g'risida xabar qilish

6.1. Har qanday shaxs ushbu Siyosat bo'yicha maslahat olmoqchi yoki Siyosat talablari buzilishi holatlari bo'yicha xabar qilmoqchi bo'lsa, Korxonaning +998 78 140 56 30 ishonch telefoni, "compliance@uzautomotors.com" elektron pochta manzili orqali Komplayens xizmatiga murojaat qilishi mumkin.

6.2. Korxona Tartib buzilishi haqida xabar qilgan shaxslar ta'qibga uchramasligi va so'roviga asosan shaxsi ochiqlanmasligini kafolatlaydi.

7. Yakunlovchi qoidalar

7.1. Ushbu tartibga Korxonaning barcha xodimlari tomonidan rioya qilinishining nazorati Korxona rahbari va Komplayens xizmatiga yuklatiladi.

7.2. Tartibga rioya qilish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solish jarayonida yuzaga keladigan nizolar Korxona ichki tartib qoidalarida yoki qonunchilikda belgilangan tartibda hal etiladi.

Ilovalar:

1.1-ilova – Xayriya yoki ijtimoiy investitsiya buyurtmanomasi.

1.2-ilova – Tijorat homiyligi buyurtmanomasi.

2-ilova – Xayriya va tijorat homiyligi bo'yicha reestr.

3-ilova – Xayriya yordamini ko'rsatish uchun namunaviy shartnoma.

4-ilova – Tijorat homiyligi uchun namunaviy shartnoma.

5-ilova – Skrining hisoboti.

6.1-ilova– Xavf omillarini baholash bo'yicha tekshiruv varag'i (Homiylik)

6.2-ilova – Xavf omillarini baholash bo'yicha tekshiruv varag'i (Xayriya)

7-ilova – Maxsus komissiya tarkibi.

“Uzauto Motors” AJning
Xayriya va tijorat homiyligini
amalga oshirish
bo'yicha tartibning
1.1-ilovasi

Xayriya yoki ijtimoiy investitsiya BUYURTNOMASI

Reg. №	_____	Sana	_____ (kun/oy/yil)
Umumiy ma'lumot			
1.	Mo'ljallanayotgan Xayriya yoki ijtimoiy investitsiyani tavsiflab bering		
2.	Mo'ljallanayotgan Xayriya yoki ijtimoiy investitsiya summasini ko'rsating		
3.	Buyurtma bir martalik yoki muntazam xayriya yoki ijtimoiy investitsiya bo'yicha kiritilmoqda	Muntazam ☐ Bir martalik ☐	
4.	Xayriya yoki ijtimoiy investitsiya obyekti yoki Oluvchisini tanlash u-bu kimning iltimosi yoki tavsiyasiga asoslanganmi?	Ha ☐ Yo'q ☐ agar "ha" bo'lsa, batafsil tushuntirish bering	
5.	Xayriyaga yoki ijtimoiy investitsiya yozma murojaat mavjudmi	Ha ☐ Yo'q ☐ agar "ha" bo'lsa, yozma murojaatning nusxasini mazkur buyurtnomaga ilova qiling	
6.	Korxona bugungi kunda Xayriya yoki ijtimoiy investitsiyaga daxldor bo'lgan biron-bir tashkilot bilan kelgusida shartnoma (kelishuv, bitim) tuzish to'g'risida muzokaralar olib borayotgani haqida ma'lumotga egamisiz?	Ha ☐ Yo'q ☐	
Maqsad			
7.	Xayriya yoki ijtimoiy investitsiya ko'rsatiladigan Oluvchining to'liq yuridik manzilini ko'rsating		
8.	Oluvchi ro'yxatdan o'tgan notijorat tashkiloti hisoblanadimi?	Ha ☐ Yo'q ☐ agar "ha" bo'lsa, Oluvchining notijorat maqomini isbotlovchi hujjatni (davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risida guvohnomani) ilova qiling	
9.		F.I.Sh.	

	Oluvchining bog‘lanish mumkin bo‘lgan mas‘ul shaxsi (vakili) to‘g‘risida ma’lumotlarni ko‘rsating	Telefon	
		E-mail	
10.	Oluvchining STIRini ko‘rsating		
Xayriya to‘g‘risida batafsil ma’lumotlar			
11.	Naqd pul shaklidagi homiylik yoki ijtimoiy investitsiya nazarda tutilmoqdam?	Ha ☐	Yo‘q ☐
12.	Xayriya yoki ijtimoiy investitsiya natura shaklida ifodalangan tovarlar yoki xizmatlar sifatida taqdim etiladimi?	Ha ☐	Yo‘q ☐
		agar “ha” bo‘lsa, tavsiflang / agar “yo‘q” bo‘lsa, keyingi savolga o‘ting	
